



GRIPP va O'RI BO'YICHA HAFTALIK MILLIY BYULLETEN

2025 yil 46 haftasi
(10.11.25 - 16.11.25)

Rezyume

Ҳафталик миллий бюллетенда гриппга ўхшаш касалликлар (ГЎК), ўткир респиратор вирусли infeksiyalar (O'RVl) va ularning og'ir shakllari (OO'RI) haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, unda aholining turli yosh guruhlarida yuqoridagi infeksiyalar bilan kasallanish ko'rsatkichlari hamda gripp va o'tkir respirator patogenlar, shu jumladan COVID-19ga laboratoriya tekshiruvlari natijalari taqdim etilgan.

Ma'lumotlar 2025 yilning 46-haftasida respublika bo'yicha, jumladan Toshkent shahrining tayanch punktlari bo'yicha taqdim etilgan


Kunlik nazorat

2025 yil 46 haftasida respublikada epidemik vaziyat 2024 yilning 46 haftasiga nisbatan O'RVl 22.9%ga, GO'K ko'rsatkichi 166.1%ga o'sishi kuzatilgan. O'tkir zotiljam kasalligi 9,2%ga pasayishga,

GO'K kasalligining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahar, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'irigan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvida 15.9% gripp virusiga musbat natija aniqlangan.


1-rasm. 2025/26 va 2024/25 mavsumlardagi GO'K ko'rsatkichi 10 000 aholiga nisbatan.



Grippga o'xshash kasalliklar 2025 yilning 46 haftasida 2025 yilning 45 haftasiga nisbatan ma'muriy hududlarning viloyat markazlari, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Toshkent, Urgench va Nukus shaharlarida 35.8%ga o'sishi kuzatilgan, 2024 yilning 46 haftasiga nisbatan ham kasallik ko'rsatkichi 33.3%ga oshgan.

Eng ko'p GO'K holatlari Buxoro, Navoiy, Samarqand, Toshkent, Urgench va Nukus shaharlarida ro'yxatga olingan.

2-rasm. 2025/26 va 2024/25 mavsumlardagi O'RI ko'rsatkichi 10000 aholiga nisbatan.




2025 yilning 46 haftasida respublika aholisi o'rtasida O'RVVI bilan kasallanish ko'rsatkichi 2025 yilning 45 haftasiga nisbatan 13.7%ga pasayishi kuzatilgan. Ma'muriy hududlarning viloyatmarkazlarida, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqandi, Termez va Urgench shaxarlarida 18.5%ga kamayish kuzatilgan, 2024 yilning 45 haftasiga nisbatan kasallik ko'rsatkichi 60.1%ga oshgan.

Joriy haftada O'RVVI kasalligining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqandi, Termez va Urgench shaxarlaridaro'yxatga olingan.

2025 yilning 46 haftasida O'RVVI kasalligi ko'rsatkichlari epidemik bo'sag'adan 28,5%ga past bo'lgan

3-rasm. 2025/26 va 2024/25 mavsumlarda zotiljam ko'rsatkichi 10 000 aholiga nisbatan.




Joriy yilning 46 haftasida o'tkir zotiljam kasalligi ko'rsatkichi ma'muriy hududlarning markaziy shaxarlarida 2025 yilning 45 haftasiga nisbatan 15.3%ga kamaygan, 2024 yilning 46 haftasiga nisbatan ham kasallik ko'rsatkichi 73.4%ga o'sishi kuzatilgan.

Eng yuqori kasallik ko'rsatkichlari Andijon, Jizzax, Qarshi, Namangan va Nukus shaxarlarida ro'yxatga olingan

GO'K bo'yicha nazorat

4-rasm. 2025/26 yillar mavsumidagi GO'K ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




Grippga o'xshash kasalliklar holatini standart aniqlash (JSST-2014):

O'tkir respirator infeksiyalar quyidagi belgi bilan namoyon bo'lganda:

- ko'rik vaqtida yoki anamnezida tana haroratini 38 S0 dan yuqori bo'lishi;
- yo'tal;
- kasallik boshlangandan 10 kun davomida.

Joriy yilning 46 haftasida 5-14 yosh guruxidagilar o'rtasida GO'K ni oshgan, qolgan yosh guruxlarida GO'Kning pasayishi kuzatildi.

5-rasm. 2025/26 yillar mavsumidagi O'RI ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




O'tkir respirator infeksiyasi holatlarining standart aniqlanishi (O'RI, ECDC/JSST):

- o'tkir boshlanishi (oxirgi 10 kun) quyidagi respirator kasallik belgilarining bittasini ro'yxatga olinishi kuzatiladi:
- yo'tal;
- tomoqda og'riq;
- hansirash;
- tumov/rinit
- shuningdek, infeksiya sababli yuzaga kelganligi haqidagi klinik xulosa.

O'tkir respirator infeksiyalari bilan kasallanish darajasi 5-14 yosh va 15-29 yosh guruxlari orasida o'sishi kuzatildi, qolgan yoshlarda kasallanishni pasaygan.


6-rasm. GO'Kda gripp monitoring natijalari mavsum 2025/26 yillar.



2025 yilning 46 haftasida GO'K bo'yicha dozorli nazorat doirasida grippga o'tkazilgan laborator tekshiruvlarning 14,6%da gripp virusi aniqlandi. Musbat natijalarining 100,0%da gripp A/H3N2 ga to'g'ri keldi.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'rigan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 15,9%da gripp viruslariga musbat natija aniqlandi. Jami grippga musbat natijalarining 100,0%da gripp A/H3N2 virusiga to'g'ri keldi.


7-rasm. GO'Kda O'RVl monitoring natijalari mavsum 2025/26 yillar.



2025-yilning 46-haftasida GO'K bo'yicha dozorli nazorat doirasida O'RVlga laborator tekshiruvlarning 16,7%da musbat natijalar aniqlandi. Musbat natijalarining 62,5%da rinoviruslarga, 37,5%da mavsumiy koronaviruslarga to'g'ri keldi.

GO'K bilan og'rigan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlarining 4,0%da musbat natijalar aniqlandi. Musbat natijalarining 52,2%da rinoviruslar, 34,8%da mavsumiy koronaviruslar, 4,3dan respirator sinsitial viruslar, metapnevoviruslar va paragripp viruslariga to'g'ri keldi.

8-rasm. GO'Kda SARS-CoV-2 monitoring natijalari mavsum 2025/26 yillar.



2025 yilning 46-haftasida aniqlangan GO'K holatlaridan olingan klinik namunalarni SARS-CoV-2 yangi koronavirusiga laborator tekshiruvlarda musbat natijalarda aniqlanmadi.

Mavsum boshidan GO'K bilan og'rikan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlarning 0,5%da SARS-CoV-2 virusiga musbat natija aniqlandi.


OO'RI bo'yicha nazorat

Og'ir o'tkir respirator infeksiya holatini standart tushunchasi (OO'RI, JSST-2014):


- oxirgi 10 kun davomida boshlangan o'tkir respirator kasallik va quyidagi belgilar kuzatiladi:
- anamnezda yoki ko'rik vaqtida tana haroratini 38 S0dan yuqori bo'lishi;
- yo'tal;- kasalxonaga yotqizilish zarurati.

OO'RI bo'yicha joriy yilning 46 haftasida 0-2 yosh, 5-14 yosh, 30-64 yosh guruhlarida kasallik ko'rsatkichlari o'sishi kuzatildi

9-rasm. 2025/26 yillar mavsumidagi OO'RI ko'rsatkichi 100 000 aholiga nisbatan.




10-rasm. OO'RI da gripp monitoring natijalari mavsum 2025/26 yillar.



2025 yilning 46 haftasida OO'RI bo'yicha dozorli nazorat doirasida grippga o'tkazilgan laborator tekshiruvlarning 53,6%da gripp A/H3N2 virusi aniqlandi.

Mavsum boshidan OO'RI bilan og'rikan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 28,5%da gripp viruslariga musbat natija aniqlandi. Jami grippga musbat natijalarining 100,0%da gripp A/H3N2 virusiga to'g'ri keldi.


11-rasm. OO'RI da O'RVl monitoring natijalari mavsum 2025/26 yillar.



2025-yilning 46-haftasida OO'RI bo'yicha dozorli nazorat doirasida O'RVlga laborator tekshiruvlarning 17,0%da musbat natijalar aniqlandi. Musbat natijalarning 31,6%da adenoviruslarga, 26,3%da rinoviruslarga, 21,1%da respirator sinsitial viruslarga, 10,5%da bokaviruslarga, 5,3%da paragripp viruslari va mavsumiy koronaviruslarga to'g'ri keldi.

Mavsum boshidan OO'RI bilan og'rikan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 6,3%da musbat natijalar aniqlandi. Musbat natijalarning 31,6%da rinoviruslarga, 21,1%dan bokaviruslar va adenoviruslarga, 10,5%da respirator sinsitial viruslarga, 7,9%dan paragripp viruslari va mavsumiy koronaviruslarga to'g'ri keldi.

12-rasm. OO'RIda SARS-CoV-2 monitoring natijalari mavsum 2025/26 yillar.



2025 yilning 46-haftasida aniqlangan OO'RI holatlaridan olingan klinik namunalarni SARS-CoV-2 yangi koronavirusiga laborator tekshiruvlarda musbat natijalar aniqlanmadi.

Mavsum boshidan OO'RI bilan og'rigan bemorlardan olingan namunalarning laborator tekshiruvlari 1,5%da SARS-CoV-2 virusiga musbat natija aniqlandi.